

SURXONDARYO AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIGIDA AYOLLAR KASANACHILIGI: TARIX VA TASNIF

Nosirova Guloyim Tohir qizi

*Termiz davlat universiteti Etnografiya, Etnologiya
va Antropologiya yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo hududida shakllangan an'anaviy hunarmandchilik tizimida ayollar kasanachiligining tarixiy rivojlanishi, asosiy yo'nalishlari va tasnifiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollar kasanachiligining ijtimoiy-madaniy ahamiyati hamda uni saqlash va rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, an'anaviy hunarmandchilik, ayollar kasanachiligi, uy hunarmandchiligi, etnomadaniyat, tasnif, milliy meros

Аннотация: В статье анализируются историческое развитие, основные направления и классификационные особенности женского надомного ремесла в системе традиционного ремесленничества Сурхандарьинского региона. Рассматривается социально-культурное значение женского ремесла и вопросы его сохранения и развития в современных условиях.

Ключевые слова: Сурхандарья, традиционное ремесло, женское надомное ремесло, этнокультура, классификация, культурное наследие.

Annotation: This article examines the historical development, main directions, and classification features of women's home-based handicrafts within the system of traditional crafts in the Surkhandarya region. The study highlights the socio-cultural significance of women's handicrafts and addresses issues of their preservation and development.

Keywords: Surkhandarya, traditional handicrafts, women's home-based crafts, ethnoculture, classification, cultural heritage.

O'zbekiston hududida an'anaviy hunarmandchilik asrlar davomida xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini shakllantirgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Surxondaryo viloyati tarixiy-geografik joylashuvi, qadimiy dehqonchilik va chorvachilik madaniyati, shuningdek, ko'chmanchi va o'troq turmush tarzining uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos hunarmandchilik an'alariga ega bo'lgan hudud sifatida ajralib turadi. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida Surxon vohasining ham alohida o'rni mavjud. Chunki Surxon vohasi tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladigan qadim maskandir. O'tmish tariximiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan arxeologik yodgorliklarning ham aksariyat qismi shu vohada joylashgan, qolaversa, voha hududi insoniyatning eng qadim

ajdodlari makon tutgan zamin hamdir¹. Ushbu jarayonda ayollar tomonidan olib borilgan kasanachilik faoliyati alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayollar kasanachiligi Surxondaryo an'anaviy hunarmandchiligining tarkibiy qismi bo'lib, u asosan oilaviy xo'jalik doirasida, uy sharoitida amalga oshirilgan mehnat faoliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyat turi nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish, balki milliy madaniy qadriyatlarni avlodlar avlodga uzatish, estetik did va amaliy san'at ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Ayollar tomonidan bajarilgan to'qimachilik, kashtachilik, gilamchilik va boshqa hunar turlari hududning etnomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati boy madaniy va moddiy an'analariga ega qadimiy tarixiy jug'rofiy makon hisoblanadi, ayniqsa inson qo'li bilan yaratilgan milliy hunarmandchilik buyumlari o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. 2021-yilning dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori bu sohaning rivojlanisha katta asos bo'ldi. Ushbu qaror ijrosi o'laroq Surxondaryo viloyatida hunarmandchilik madaniyati tarixi keng ko'lamda o'rganilish va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda². Surxondaryo hududida an'anaviy hunarmandchilikning shakllanishi qadimgi dehqonchilik madaniyati va ilk shaharsozlik jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologik va tarixiy manbalarda Termiz vohasi, Sherobod va Boysun hududlarida amaliy san'at va uy hunarmandchiligi unsurlarining mavjud bo'lgani qayd etilgan. Mazkur hududlarda ishlab chiqarish faoliyati asosan oilaviy xo'jalik shaklida tashkil etilgan bo'lib, ayollar mehnati muhim o'rin tutgan.

O'rta asrlar davrida Surxondaryo Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmoqlaridan biri orqali iqtisodiy va madaniy aloqalarga keng jalb etilgan. Natijada hunarmandchilik turlari rivojlanib, mahalliy xomashyo asosida tayyorlangan mahsulotlar ichki ehtiyoj bilan bir qatorda ayirboshlash va savdo munosabatlarida ham qo'llanilgan. Ayniqsa, uy sharoitida bajariladigan kasanachilik faoliyati ayollar tomonidan muntazam olib borilgan bo'lib, bu jarayon ijtimoiy mehnat taqsimotining tarixiy shakllarini aks ettiradi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxondaryo hududida hunarmandchilik asosan an'anaviy usullar asosida rivojlanishda davom etgan. Ayollar kasanachiligi ushbu davrda to'qimachilik, ipak va jun mahsulotlarini tayyorlash, kashtachilik buyumlarini ishlab chiqarish orqali namoyon bo'lgan. Mazkur faoliyat turi ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash bilan birga, oila daromadining muhim manbalaridan biri sifatida xizmat qilgan. Sovet davrida hunarmandchilik faoliyati kooperativlashuv

¹ Surxondaryo tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma. D.T.Yakubova. – T.: "Lesson Press" nashriyoti. 2022. – 246 bet.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 sanadagi PQ-77 sonli "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori

jarayonlariga jalb etilgan bo'lsa-da, Surxondaryo hududida ayollar kasanachiligi ko'plab hollarda an'anaviy shakllarini saqlab qolgan. Ayniqsa, chekka hududlarda uy hunarmandchiligi norasmiy iqtisodiy faoliyat sifatida davom etib, milliy madaniy merosning muhim elementi sifatida yashab kelgan.

Surxondaryo an'anaviy hunarmandchiligi tizimida ayollar kasanachiligi nafaqat iqtisodiy faoliyat shakli, balki hududning etnomadaniy taraqqiyotini belgilovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Ayollar tomonidan uy sharoitida amalga oshirilgan hunarmandchilik faoliyati asrlar davomida oila, mahalla va jamiyat doirasida muayyan ijtimoiy vazifalarni bajargan. Ushbu faoliyat turi ayollarning mehnatga jalb etilishining tarixiy shakllaridan biri bo'lib, u an'anaviy gender mehnat taqsimoti asosida shakllangan. An'anaviy jamiyat sharoitida Surxondaryo ayollar kasanachiligi asosan uy xo'jaligi bilan uyg'un holda olib borilgan. To'qimachilik, kashtachilik, jun va ipak mahsulotlarini tayyorlash jarayonlari ayollarning kundalik turmush faoliyatiga singib ketgan bo'lib, bu holat hunarning faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ham belgilagan. Kasanachilik orqali ayollar oilaning moddiy ta'minotiga hissa qo'shish bilan birga, milliy an'ana va qadriyatlarni saqlovchi hamda uzatuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritgan. Yurtimizda hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada "Hunarmand" uyushmasi a'zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xomashyo materiallarini xarid qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, "usta-shogird" maktablarini tashkil etish, uy-muzeylar va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olish uchun — 3 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 18 oygacha muddatga ajratilishi³ ular uchun yaxshi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Ayollar kasanachiligining etnomadaniy mohiyati, avvalo, hunar turlarining marosimiy va maishiy vazifalari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Surxondaryo hududida tayyorlangan kashtali buyumlar, to'qima matolar va uy-ro'zg'or jihozlari nikoh, tug'ilish, diniy va oilaviy marosimlarda muhim atribut sifatida qo'llanilgan. Ushbu buyumlarda aks etgan naqshlar, rang uyg'unligi va texnologik usullar hududiy an'analar hamda estetik qarashlarning mujassam ifodasi hisoblanadi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan, ayollar kasanachiligi norasmiy iqtisodiyot doirasida shakllangan barqaror mehnat faoliyati sifatida ayollarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan. Kasanachilik orqali ayollar mehnati ijtimoiy jihatdan tan olingan, ularning hunar ko'nikmalari avloddan-avlodga uzatilgan. Bu jarayonda bilim va malakalar og'zaki an'ana, amaliy mashg'ulot va oilaviy tarbiya orqali yetkazilgan bo'lib, rasmiy ta'lim tizimidan tashqari holda shakllangan kasbiy tajribani ifodalaydi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 sanadagi PQ-77 sonli "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori

Surxondaryo hududida ayollar kasanachiligi tarixan shakllangan hunarmandchilik tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u mahalliy xomashyo bazasi, tabiiy-iqlim sharoiti hamda ijtimoiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Ayollar tomonidan amalga oshirilgan kasanachilik faoliyati asosan uy sharoitida bajariladigan, jismoniy jihatdan mos va avloddan-avlodga o'tuvchi amaliy ko'nikmalarga asoslangan hunar turlarini o'z ichiga olgan. Ushbu hunar turlari funksional vazifasi, texnologik jarayoni va madaniy ahamiyatiga ko'ra bir nechta asosiy yo'nalishlarga ajratiladi.

Ayollar kasanachiligining eng qadimiy va keng tarqalgan yo'nalishlaridan biri to'qimachilik hisoblanadi. Surxondaryo hududida to'qimachilik faoliyati asosan paxta, jun va ipak xomashyosi asosida rivojlangan bo'lib, ip yigirish, mato to'qish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari ayollar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu faoliyat turi oilaviy ehtiyojlarni qondirish bilan birga, ortiqcha mahsulotni ayirboshlash va savdo munosabatlarida foydalanish imkonini bergan. To'qimachilik mahsulotlari kundalik kiyim-kechak, ro'zg'or buyumlari va marosimiy ehtiyojlar uchun xizmat qilgan.

Ayollar kasanachiligining muhim yo'nalishlaridan yana biri kashtachilik bo'lib, u Surxondaryo hududida yuqori estetik qiymatga ega bo'lgan hunar turi sifatida shakllangan. Kashtachilik buyumlari asosan uy-ro'zg'or anjomlari, kiyim-kechak elementlari va marosimiy buyumlar bezagida qo'llanilgan. Ushbu yo'nalishda tayyorlangan mahsulotlar nafaqat amaliy vazifani bajargan, balki hududiy estetik qarashlar, ramziy tasvirlar va an'anaviy naqsh tizimlarini mujassamlashtirgan.

Gilamchilik va jun mahsulotlarini tayyorlash ayollar kasanachiligining yana bir muhim turi hisoblanadi. Chorvachilik rivojlangan Surxondaryo hududida jun xomashyosining mavjudligi ushbu hunarning keng tarqalishiga imkon yaratgan. Ayollar tomonidan tayyorlangan gilamlar, kigiz buyumlar va jun asosidagi mahsulotlar uy-joy jihozlash, issiqlikni saqlash hamda maishiy ehtiyojlarni qondirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu buyumlar mustahkamligi va uzoq muddat xizmat qilishi bilan ajralib turgan. Shuningdek, ayollar kasanachiligi doirasida ipak bilan bog'liq hunar turlari ham alohida o'rin egallagan. Ipak tolalarini qayta ishlash, ip yigirish va mato tayyorlash jarayonlari ayollar mehnatiga tayanib amalga oshirilgan. Ipak mahsulotlari yuqori sifatli va estetik jihatdan qimmatbaho bo'lib, ular ijtimoiy mavqe va marosimiy ahamiyatga ega buyumlar sifatida qadrlangan. Viloyatimizda gilamchilikning keng yoyilishi va xalq hunarmandchiligining qayta tiklanishiga katta hissa qo'shayotgan hunarmand ayollardan biri Maftuna Azizova sanaladi. Mohir gilamdo'z Boysunning qo'li gul gilamchilaridan biri. U Boysun tumanining "Hunarmandlar" mahallasidan. Yosh gilam do'z hunarmand Boysun tumani, viloyat, Respublika miq-yosidagi hunarmandlarning e'tiborini qozongan. Ko'plab ko'rik-

tanlovlarda ham g'oliblikni qo'lga kiritgan.⁴ Shu tariqa, Surxondaryo ayollar kasanachiligi turli yo'nalish va turlardan iborat murakkab tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimda har bir hunar turi hududiy xususiyatlar, ijtimoiy ehtiyojlar va madaniy an'analar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Ayollar tomonidan amalga oshirilgan kasanachilik yo'nalishlari Surxondaryo an'anaviy hunarmandchiligining uzluksizligi va barqarorligini ta'minlagan asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Surxondaryo ayollar kasanachiligini ilmiy jihatdan o'rganishda asosiy masalalardan biri ushbu faoliyatni aniq va tizimli tasniflash mezonlarini belgilashdan iboratdir. Chunki kasanachilik ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, uni faqat hunar turlari kesimida tavsiflash ilmiy jihatdan yetarli hisoblanmaydi. Shu bois ayollar kasanachiligini tasniflashda bir nechta o'zaro bog'liq ilmiy yondashuvlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Birinchi navbatda, ayollar kasanachiligini texnologik mezon asosida tasniflash mumkin. Ushbu mezon hunar turlarini ishlab chiqarish jarayoni, qo'llaniladigan texnika va mehnat usullariga ko'ra guruhlashni nazarda tutadi. Masalan, ip yigirish, mato to'qish, kashta tikish yoki jun mahsulotlarini qayta ishlash kabi jarayonlar texnologik murakkablik darajasi va bajarilish bosqichlariga ko'ra farqlanadi. Bu yondashuv kasanachilik faoliyatining mehnat sig'imi va malaka talablarini aniqlash imkonini beradi. Ikkinchi muhim mezon — funksional tasnif bo'lib, bunda ayollar kasanachiligi mahsulotlarining amaliy vazifasi asos qilib olinadi. Surxondaryo hududida ayollar tomonidan tayyorlangan buyumlar kundalik maishiy ehtiyojlar, marosimiy maqsadlar yoki estetik bezak vazifalarini bajargan. Ushbu tasnif kasanachilik mahsulotlarining jamiyat hayotidagi real funksiyalarini ochib berishga xizmat qiladi. Uchinchi yondashuv estetik va ramziy mezon asosida amalga oshiriladi. Ayollar kasanachiligida qo'llanilgan naqshlar, ranglar uyg'unligi va bezak elementlari muayyan hududiy an'analar hamda ramziy ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu mezon orqali kasanachilik mahsulotlari nafaqat moddiy buyum sifatida, balki madaniy matn sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, ayollar kasanachiligini hududiy mezon asosida tasniflash ham ilmiy ahamiyatga ega. Surxondaryo viloyatining turli hududlarida kasanachilik yo'nalishlari va uslublari mahalliy tabiiy resurslar, xo'jalik tuzilmasi va ijtimoiy sharoitlarga bog'liq holda shakllangan. Bu yondashuv hududiy farqlanishlarni aniqlash imkonini beradi.

Bugungi kunda Surxondaryo ayollar kasanachiligi globallashtirish, sanoatlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi sharoitida muayyan muammolar bilan yuzlashmoqda. An'anaviy hunar turlarining bir qismi zamonaviy ishlab chiqarish shakllari bilan raqobatga dosh bera olmay, asta-sekin kundalik

⁴ G'.Mamarajabov. (2024). Surxondaryo viloyatida an'anaviy hunarmandchilikka e'tibor. "Tamaddun nuri" jurnali, 5(56), 215-217-betlar.

hayotdan siqib chiqarilmoqda. Bu holat ayollar kasanachiligining tarixiy shakllarini saqlab qolish masalasini dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida yuzaga keltiradi.

Asosiy muammolardan biri — kasanachilik faoliyatining uzluksizligini ta'minlovchi avlodlararo bilim uzatish mexanizmlarining susayishidir. An'anaviy jamiyat sharoitida hunar ko'nikmalari oilaviy muhitda tabiiy tarzda o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda ushbu jarayon izchil davom etmayapti. Natijada ayrim hunar turlari faqat yoshi katta ayollar tajribasi doirasida saqlanib qolmoqda. Shuningdek, ayollar kasanachiligining iqtisodiy jihatdan yetarli darajada rag'batlantirilmaligi ham muhim muammo hisoblanadi. An'anaviy hunar mahsulotlarining bozor mexanizmlariga moslashtirilmaligi ularning iqtisodiy samaradorligini pasaytiradi. Bu esa ayollarning kasanachilik faoliyatiga bo'lgan qiziqishini cheklaydi.

Biroq ushbu muammolar bilan bir qatorda ayollar kasanachiligini rivojlantirish uchun muayyan istiqbolli yo'nalishlar ham mavjud. Avvalo, an'anaviy hunarlarni madaniy meros obyekti sifatida ilmiy hujjatlashtirish va tizimlashtirish ularni saqlashning muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, kasanachilik faoliyatini zamonaviy ta'lim, madaniyat va turizm tizimlari bilan integratsiya qilish imkoniyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 sanadagi PQ-77 sonli "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.
2. Surxondaryo tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma. D.T.Yakubova. – T.: "Lesson Press" nashriyoti. 2022. – 246 bet.
3. G'.Mamarajabov. (2024). Surxondaryo viloyatida an'anaviy hunarmandchilikka e'tibor. "Tamaddun nuri" jurnali, 5(56), 215-217-betlar
4. Аннаев Т. Шайдулаев Ш. Сурхондарё тарихидан (Қадимги даврлардан XIX асрга қадар). А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.-Тошкент, 1997.
5. Tashmuhamedova D. va boshqalar. Hududlarni kompleks baholashning ijtimoiydemografik jihatlari. –T. 2020. –B 58-60.